

Registon va chinor

Badia

Samarqand yo'lidaman. Mashina motorining bir maromda guvillashidan zerikkan qulog'imga boshqa ermak izlayman. Ulov oynasini pastlataman. Yuzimga biroz zahilroq, ammo birda yoqimli shabada uriladi. Ichkariga o'zini otayotgan toza havodan nedir sir izlayman.

Miyam tiniqlashganday ko'zimni yumaman. Shunda xayolimga to'satdan in qurib olgan so'rovdan sergak tortaman: "Qiziq, Tillakori madrasasidagi qari chinor daraxti hali ham bormikin-a?" Keyin o'zimcha g'udrang bo'laman: "Bu nima degan gap? Axir u chinor bo'lsa. Chinor ming yil yashaydi-ku". Lekin baribir taskin topmayman. Va hoziroq borib kekxa chinor daraxtini ziyorat qilishni dilimga tugaman. Xizmat safarimga mazmun enganidan atrofga mamnun boqaman...

Registon! Sharq gavhari Samarqandga timsol obida. Uning yonida turish, bor mahobati, bor go'zalligi-yu sehrini yurakdan his qilgancha o'z ko'zlaring bilan termilish qanchalar yoqimli, qanchalar mas'uliyatli. Minoralarning har bir g'ishti sendan ana shu mas'uliyatni, ajdodlarga munosib avlod bo'lish vazifasini talab qilayotgandek. Shunda Registonni quchib olging, o'zingni uning bag'riga otging keladi. Boboning ulug'vor nigohlariga termilgan go'dakdek bir-biridan chiroyli peshtoqlardan sinoat qidirasan. Va anglaysanki, Registon shunchaki bir tarixiy obida emas, ruhingga ozuqa berguvchi, yuragingga dalda endirguvchi mo'jizaviy tilsimdir.

Registon maydoniga olib kiruvchi yo'lakka qadam tashlayman. Oyoq ostida mavjlana-yotgan nurdan sergaklanaman. Oynadek atrofni akslantirayotgan tiniq yo'lakdan Temur bobomning shaxdam qadamlarini izlayman. Har bir odimimni ehtiyotlayman, ham mag'rurlanaman: "Men buyuk Temur izidan ketyapman, men yarim dunyo poyiga tiz cho'kkan bobomning poyqadamlarini ko'ryapman. Men hozir buyuk Sohibqiron ortidan yo'lga tushdim".

Yuragim hapqiradi, oyoqlarimga quvvat singadi. O'zinga bolgan ishonch yanada ortgandek. Registonning uch javohiri — uch madrasasi bilan xayolan suhbat quraman. Bebosh titrog'imni bosishga urinaman. Bir yonda Sherdor, bir yonda Mirzo Ulug'bek madrasalari. O'rtada esa Registon ansambliga o'zgacha ruh bag'ishlab turgan Tillakori madrasasi. Uch obida — uch tarix. Har birining o'z salobati, o'z tarovati bor. Ko'zga nur, qalbga surur ulashadi ularning har biri. Hayotning, tiriklikning qanchalar aziz ne'mat hisoblanishini, yaxshilik va ezgulikning umri boqiy ekanligidan so'zlaydi. Ozodlik va hurlik, bunyodkorlik va yaratuvchanlik el farovonligi yo'lida asosiy tirgak ekanligini uqtirib keladi. Maftunkor husniga o'zgacha hayrat va havas bilan boqayotgan nigohlarga ana shu hayotiy haqiqatlarni joylaydi. Yurtimiz mehmonlariga xalqimizning shonli o'tmishidan, bobolarimiz aqli va tafakkuri qanchalar yuksak bo'lganligidan guvohlik beradi.

Sherdor madrasasi peshtoqida aks ettirilgan, yelkasi quyoshga tutash yo'lbars timsolini mustaqil O'zbekistonimizning bugungi farahbaxsh kunlariga qiyoslayman. Yolbarsdek o'z yo'lidan, o'z maqsadlaridan hech qachon ortga qaytmaydigan yurtimiz boshida quyoshdek mudom porlab turuvchi istiqbolga shukrona aytaman. Mulohazalarimdan bir muddat mag'rurlik tuyaman. Mirzo Ulug'bek madrasasining ikki yonida qo'r to'kib turgan minoralarning timsoli o'z-o'zidan ayondek. Bu ikki minora xuddiki, buyuk tariximizni yorqin kelajak bilan bog'lab turuvchi, xalqimizning kechasi va ertasini aks ettirgan ramziy haqiqatdir.

Tillakori madrasasi, ayniqsa, uning ichki go'zalligini ta'riflash alohida mavzu talab qiladi. Bejirim o'ymakor naqsh san'atining yuksak namunasini o'zida aks ettirgan bu obida sizni ertaklar olamiga olib kiradi. Dilga o'zgacha shukuh, ko'zga munavvarlik baxsh etadi. Madrasa hovlisiga kirib o'rtada qo'r to'kib turgan chinorga ko'zim tushdi-yu o'ylarim tumandek tarqadi-ketdi: "Xayriyat". Ishonchim ming chandon komil bo'lsa-da, yuraginga

yaqindek tuyilgan chinorni ko‘rib xotirjam tortdim. Va angladimki, bu yerda uzoq umr ko‘ruvchi daraxtning makon tutganligida ham bir hikmat bordek. Ya’ni, Registonning ham, bu azim chinorning ham yoshi ulug‘. Ikkisi ham kishilarga o‘tmishdan hikoyalar so‘zlab beradi. Shuning barobarida bizni bugungi kunimizning har bir onini qadrlashga, ezgulikdan ma’no izlashga chorlaydi. Qalbgga quvvat baxsh etuvchi yana bir haqiqat shuki, bu ikki timsol, bu ikki mo‘jiza hali yana necha-necha asrlar davomida odamlarga yaxshilik, olam-olam zavq ulashadi. Ularning umrboqiyligi ham mana shunda.

Gulxan jurnalidan.
Farhod Eshmo‘minov